

ISSN 3030-3370


№ 2 (9) 2025



AYNIY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL





ISSN 3030-3370

“AYNIY VORISLARI”
xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»
международный электронный
журнал

“AYNIY’S SUCCESSORS”
international electronic journal

№ 2 (9) 2025

*To'rayeva Laylo Omonovna,
BuxDU O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası o'qituvchisi, f.f.d.(PhD)
(O'zbekiston)
E-mail: L.o.turayeva@buxdu.uz*

UBAYDULLA SOLIH O'G'LI ZAVQIY IJODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayot o'zgara boshladi. Ko'p asrlik mumtoz adabiyot, avvalo, mazmun jihatdan yangi o'zanga yuz burdi. An'anaviy lirik qahramonlar: oshiq, ma'shuq, ag'yor, pir obrazlari o'z o'rnini jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy voqealarga befarq bo'lmagan Shaxsga bo'shatib berdi. Bu davrda yaratilgan lirik va nasriy asarlarda zamonadan shikoyat, xalqning nochor ahvolidan norozilik, inson haq-huquqlarining poymol qilinishiga qarshi qaratilgan kayfiyat hukmronlik qildi. Ma'rifatparvarlik adabiyoti deb nomlangan mazkur davrda xalqparvarlik va taraqqiyparvarlik g'oyalarini kuylash an'analari yuzaga keldi.

Qo'qon adabiy maktabining yetakchi vakillaridan biri Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiy, Muqimiy, Furqat, Nusrat, Nisbat, Muhayyir, Toshxo'ja Eshonxo'ja o'g'li Asiriy, Karimbek Kamiy singari ijodkorlar bilan bir davrda ijod qildi. Ushbu maqolada Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiy ijodining o'ziga xos xususiyatlari haqida ba'zi fikr-mulohazalar bildiriladi. Uning "Yuzingni ko'rsatib..." muxammasi g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Turkiston, matbuot, mumtoz adabiyot, tasavvuf, ma'rifatparvar-demokratik adabiyot, lirika, lirik men, obraz, timsol, badiiy san'atlar, raqib, ag'yor obrazi

Аннотация. Ко второй половине XIX века общественно-политическая жизнь в Туркестане начала меняться. Многовековая классическая литература обрела новое значение, прежде всего в содержательном плане. Традиционные лирические герои: влюбленный, возлюбленная, агъёр, пир, уступили место Личности, равнодушной к социальным событиям, происходящим в обществе. В лирических и прозаических произведениях, созданных в этот период, преобладали настроения жалобы на время, недовольства беспомощным положением народа, противодействия нарушению прав человека. В этот период, известный как литература Просвещения, зарождаются традиции воспевания идеалов национальной идентичности и прогрессивности.

Один из ведущих представителей кокандской литературной школы Ubaydulla Salih oglu Zavki работал одновременно с такими художниками, как Мукими, Фуркат Нусрат, Нисбат, Мухайир, Тошходжа Эшонходжа оглы Асири, Каримбек Ками. В данной статье представлены некоторые размышления об уникальных особенностях творчества Ubaydulla Salih oglu Zavki. Его загадка "Покажи свое лицо..." анализируется с идейно-художественной точки зрения.

Ключевые слова: Туркестан, пресса, классическая литература, мистицизм, просвещенно-демократическая литература, лирика, лирическое "я", образ, символ, художественное искусство, противник, образ агъёра

Abstract. By the second half of the 19th century, the socio-political life in Turkestan began to change. Centuries-old classical literature acquired a new meaning, primarily in terms of content. Traditional lyrical heroes: a lover, a beloved, agyor, a feast, gave way to a Man who was not indifferent to the social events taking place in society. In the lyrical and prose works created during this period, the moods of complaints about the time, dissatisfaction with the helpless position of the people, and opposition to the violation of human rights prevailed. During this period, known as the literature of the Enlightenment, the traditions of glorifying the ideals of nationalism and progressivism were born.

One of the leading representatives of the Kokand literary school, Ubaidulla Salih oglu Zavki, worked simultaneously with such artists as Mukimi, Furkat Nusrat, Nisbat, Mukhayir, Toshkhoja Eshonkhoja oglu Asiri, Karimbek Kami. This article presents some reflections on the unique features of the work of Ubaidulla Salih oglu Zavki. His enigma "Show your face..." is analyzed from an ideological and artistic point of view.

Keywords: Turkestan, press, classical literature, mysticism, enlightened democratic literature, lyrics, lyrical "I", image, symbol, art, enemy, image of agyar.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayot o'zgara boshladi. Matbuot, teatr, pochta (telegraf), fotografiya va boshqa yangiliklarning kirib kelishi jamiyat kishilari ong-tafakkurida yangilanish yuz berishiga sababchi bo'ldi.

Ko'p asrlik mumtoz adabiyot avvalo mazmun jihatdan yangi o'zanga yuz burdi. An'anaviy lirik qahramonlar: oshiq, ma'shuq, ag'yor, pir o'z o'rnini jamiyatga ro'y berayotgan ijtimoiy voqealarga befarq bo'lmagan Shaxsga bo'shatib berdi. Badiiy ijodda ilohiy ishq mavzusi o'z dolzarbligini yo'qotdi, ijtimoiy-maishiy mavzu yetakchi o'ringa chiqdi. Tasavvuf she'riyatiga xos ramz va timsollar o'z ma'nosida qo'llanila boshlandi. Bir so'z bilan aytganda badiiy ijod osmondan yerga tushdi. Bu davrda yaratilgan lirik va nasriy asarlarda zamonadan shikoyat, xalqning nochor ahvolidan norozilik, inson haq-huquqlarining poymol qilinishiga qarshi qaratilgan kayfiyat hukmronlik qiladi. Xalqning ham Chor Rossiyasi, ham mahalliy boylar tomonidan olib borayotgan mustabid mafkurasi ostida og'ir sharoitda yashashi badiiy adabiyotning asosiy mavzusiga aylandi.

Asosiy qism. Ma'rifatparvarlik adabiyoti deb nomlangan mazkur davrda uch asosiy maktab mavjud. Bular – Toshkent, Xorazm va Qo'qon adabiy maktablari. Har uchala adabiy muhit mushtarak xususiyatlarga ega bo'lib, bu xalqparvarlik va taraqqiyparvarlik g'oyasidir. Komil Xorazmiy xonliklar davri adabiyoti va ma'rifatparvar demokratik adabiyot davri o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'taganligi adabiyotshunoslikda qayd etilgan.

Qo'qon adabiy maktabining yetakchi vakillaridan biri Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiy Muqimiy, Furqat, Nusrat (Nasriddin), Nisbat, Muhammadqul Mirza Muhammad Rasul o'g'li Muhayyir, xo'jandlik Toshxo'ja Eshonxo'ja o'g'li Asiriy (1916–yilda vafot etgan), Karimbek Kamiy singari shoirlar bilan bir davrda ijod qilib, mamlakatda ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qildilar.

Zavqiy lirikasi o'z zamondoshlari ijodidan quyidagi farqli xususiyatlarga ega:

1. Zavqiy lirikasida ilohiy-irfoniy mavzudagi she'rlar uchramaydi.
2. Shoirning adabiy merosi, asosan, masnaviy, muxammas, g'azal janrida yaratilgan.
3. Kichik lirik janrlar shoir ijodida deyarli qo'llanmagan.
4. Ijtimoiy-siyosiy voqelikka keskin munosabat bildirilgan. Natijada Zavqiy o'zining hajviy asarlari bilan o'z davrida shuhrat qozongan.
5. Zavqiy lirikasida hajviy yo'nalish yetakchilik qiladi. Bu esa shoirning real hayotga bo'lgan shaxsiy munosabatini yaqqol ifodalaydi.
6. Shu bilan birga Zavqiy mumtoz janrlarni ichki jihatdan tamomila o'zgartirgan an'anaviy janrlarda ijtimoiy, maishiy, siyosiy mavzularda qalam tebratgan. Muqimiy va Furqat ijodiga xos sayohatnoma va maktub janriga oid asarlar anchagina salmoqli.

Zavqiyning lirik asarlarida o'zi yashagan muhit va tuzum, mehnatkashlarning ahvoli, hayot tarzi, turmush alam-iztiroblari, hijron azobiga bo'lgan visol umidi, vafodorlik, sadoqat tuyg'ularini qarama-qarshi qo'yadi, kishilarni turmush go'zalliklaridan zavqlanishga, uni sevishga chorlash g'oyalari ulug'lanadi.

“Kajdor zamona”, “Ajab zamona”, “Abdurahmon shayton” kabi hajviy g'azallarida mustamlaka tuzumidagi ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, chor ma'muriyati himoyasida bo'lgan ayrim nopok amaldorlarning kirdikorlari fosh etiladi. Zavqiyning “Muncha ko'p” radifli hamda “Ajab zamondur, ahhob, bosh qotib qoldi” misrasi bilan boshlanuvchi muxammaslari XIX asr boshlari she'riyatidagi eng o'tkir ijtimoiy asarlari jumlasiga kiradi.

Shoir ijodiy merosida o'zbek qishloqlarining ahvoli, dehqonlar hayoti mavzuyi ham katta o'rin tutadi. “Yangi Qo'rg'on qishlog'i”, “Suv janjali”, “Shohimardon sayohati” kabi asarlari Muqimiyning “Sayohatnoma” asari ta'sirida yozilgan.

Zavqiy Muqimiyning hajvchilik yo'lini davom ettirib, o'zbek adabiyotida hajviy yo'nalish taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Uning “Obid mingboshi haqida hajv” va “Voqeayi qozi saylov”, “Qahatchilik” kabi asarlarida ijtimoiy adolatsizlik fosh etiladi, xalqning zulmga qarshi namoyishlari aks ettiriladi. Ijtimoiy hayotdagi ayrim nosozliklar, kishilar faoliyatidagi salbiy hollar ustidan “Ta'rifi kalish”, “Otim”, “Fonus”, “Sigirim”, “Pashshalar” kabi bir qator she'rlarida zaharxanda bilan kuladi.

“Ajab ermas” radifli muxammasi 20-asr boshlari o'zbek she'riyatida muhim hodisa bo'ldi. Bunda shoir mustamlaka asoratida ezilayotgan yurtning baxtli kelajagi haqida fikr yuritdi. “Ajab ermas” she'rida yurt kelajagi borasidagi shoirning armon, orzu va istaklari aks etgan. Sho'rolar davrida asli yetti banddan iborat bo'lgan mazkur muxammas to'rt band qilib taqdim etilgan. Qo'qonlik adabiyotshunos olim

Rustamjon Tojiboyev 1997-yilda muxammasning to'la matnini tiklaydi va matbuotda e'lon qiladi. Muxammasda Zavqiy xalq boshidan o'tkazayotgan istibdod kunlarini osmondagi tarqalib ketuvchi bulutga o'xshatib, bu bilan bulutni mustamlakachi davlatlarning ramziy obrazi sifatida talqin qiladi. Bu orqali millatimiz boshiga soya solayotgan mustamlaka bulutlari tezda tarqalib ketib yurtimiz batamom ozod bo'lishiga umid bildiradi.

Zavqiyning dunyoviy muhabbat vasf qilingan "Yuzingni ko'rsatib..." muxammasi badiiy jihatdan puxta va mukammal asarlaridan biri. Unda lirik qahramon – oshiqning ishq yo'lida chekkan iztiroblari, ma'shuqasiga shikoyati ravon uslubda bayon qilingan. Har bir band keyingi band uchun asos vazifasini o'tagan. Muxammasda oshiq va ma'shuqqa xos xususiyatlar bandma-band rivojlanib, o'sib boradi. Muxammasning o'ziga xos ichki simmetriyasi mavjud, voqealar rivoji ana shu simmetriyada tutashgan.

Dastlabki bandda lirik men o'zining yor jamoliga oshig'u shaydo bo'lishini, ma'shuqaning noz, xanda, jilvasini ta'riflaydi. Ana shu xislat tufayli jon jononning asiriga aylangan. Masih – Iso tufayli payg'ambarning laqabi, uning nafasi jonbaxsh, hatto o'likni tiriltira olish qudratiga ega.

Yuzingni ko'rsatib avval o'zungga bandalar qilding,
Yana ko'nglim olib yuz noz birla xandalar qilding,
Jamoling partavin solib, ajoyib jilvalar qilding
Masihdek bir boqishda murda jismim zindalar qilding.

"Senga men to qiyomat oshno", deb va'dalar qilding [2, 86].

Masih nomi va unga xos noyob karomatga ishora qilish orqali fikr ta'sirchanligini oshirgan. Talmeh san'atining go'zal namunasi bo'lgan mazkur bandda oshiq yorning va'da berganligi, qiyomatga qadar habib, oshno bo'lishga va'da qilganligini ta'kidlaydi.

Muxammasning ikkinchi bandi ma'shuqaning o'z so'zida turmaganligi, undan uzoqlashgani, mehr-oqibatsizligi xususida. Oshiq va ma'shuqdan tashqari uchinchi shaxs – raqib, ag'yor obrazi an'anaviy timsollardan biri. Bandda tilga olingan begonaga – raqibga ma'shuqa iltifot ko'rsatadi, oshiq esa bundan mahrum va bebahra, u shuning uchun tundan tonggacha hijrondan azoblanadi.

Qani menga vafoi ahd qilg'oning, guli g'uncha,
Qani bulbul sifat oldingda turgonim ochilg'uncha,
Qani bizlarg'a hamsuhbat raqiblardek tong otquncha,
Sani dardi firoqing aytib-aytib yig'lay o'lguncha,
Na deb ey mehri yo'q, men xasta qulg'a g'amzalar qilding [2, 86].

Oshiq o'zini bulbulga, yorini gulga o'xshatadi, bu albatta mumtoz adabiyotga xos an'anaviy timsol. Gul – bulbul, sham' – parvona, pir – murid singari timsollar ham diniy, ham dunyoviy ishq talqini uchun qo'llanilgan obrazlar, ularning qanday mazmun, g'oyani ifodalaganligi kontekstda aniq ko'rinib turadi. Bevafo, ahdi yolg'on, va'dasida sobit tura olmaydigan sitamkor yor raqiblar bilan tongga qadar suhbat quradi, ularga navozish qiladi. Bu esa oshiqning yurak-bag'rini o'rtaydi, ko'ngliga cho'g' soladi va u "mehri yo'q" ma'shuqaning qilg'idan ozor chekib, dardlarini aytib-aytib yig'laydi.

Deb erding: kecha-kunduz men seni yoring bo'lurman deb,
Tikandek suhbatingda bir guli noring bo'lurman deb,
Jafoni senga oz aylab, vafodoring bo'lurman deb,
Umidim ko'p edi, yolg'iz xaridoring bo'lurman deb,
Ajabkim xalq ichinda bulhavas deb shikvalar qilding [2, 86].

Ma'lumki, klassik she'riyatda savol-javob alohida badiiy san'at sanaladi. Atoiy, Lutfiy, Navoiy va boshqa ijodkorlar asarlarida bu san'atning yuksak namunalari uchraydi. "Farhod va Shirin" dostonida keltirilgan Farhod va Xusravning munozarasi buning yorqin dalilidir. Savol-javob xuddi dramatik asarlarda bo'lgani kabi adabiy qahramonning g'oya, maqsad, xarakter va ichki ruhiy olamini ochib beradi. Unda muallif emas, qahramonlar o'z nutqi orqali o'z-o'zini "fosh" qiladi. Savol-javob dramatismni kuchaytiradi, qahramonlar o'rtasidagi ichki kolliziya taranglashadi.

Badiiy psixologizmning muhim unsurlaridan bo'lgan dialog lirik asarning voqeabandligini ko'rsatibgina qolmay, ularning xarakterini, fitrati va botiniga xos asllik va shularga qarama-qarshi illatlarni bo'rttirib ko'rsatadi.

Manga mardumlar aydi: berma ko'ngul bevafo yora,
Seni ovora aylar, ahdi yolg'onlar, sitamkora,
Vafosi yo'q, ishonma so'ziga, sho'xi jafokora,

Dedimkim, nosiho in'om ko'pdur oshiqi zora,
Netay, ey bemuruvvat, oxiri sharmondalar qilding [2, 86].

Shoir 3-va 4-bandlarda lirik “men” va “mardumlar”ni tilga kiritadi. Yor – jafokor, dilozor, u shuning uchun ham “tikandek suhbat”dosh, umidlari puchga chiqqan, ma'shuqaning xaridorlari ko'p, ustiga ustak bechora, ilojsiz qolgan oshiqni ishongan mahbubasi xalq orasida “bulhavas” deb jar solgan. Xaloyiq unga bevafo, ahdi yolg'on, sitamkor, sho'x dilraboning so'zlariga ishonmasligini maslahat beradi. Nosih, (nasihatchi) esa o'z husni shaydosiga in'omi ko'pligini bildiradi. Biroq ma'shuqa el aytganidek, alaloqibat oshiqni sharmanda emas, sharmandalar qiladi. Ona tilimizda odatda mavhum otlarga ko'plik affiksi -lar qo'shilmaydi. Agar ot va fe'l so'z turkumidagi leksemalar -lar bilan birga qo'llansa, ma'no kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan: Kulgilarim kelib ketdi. Tiriliblar ketsin.

Shoir shu tariqa xalq tili boyligidan, maqol va hikmatli so'zlardan; kinoya va istehzo, ironiya kabi nozik qochirimlari va so'z o'yinlaridan mahorat bilan foydalanadi. Bu esa uning xalqning obrazli tili, adabiyoti, urf-odatlarini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Har bir so'zning ma'no qirralari, bo'yoqdorligini his qilgan shoir misralarda so'zni jonlantiradi. Zero, haqiqiy she'riy asarda so'z jonli harakat qiladi, har bir qo'llanganda yangicha tus oladi. Oshiq ma'shuqasini mehrsizlikda ayblaydi. Bir bor tarahhum qilgan ma'shuqa oshiqning holini bilsa-da, o'zini tag'ofilga soladi. Yori jonini ko'ziga mehmon qilgan ishqqa muhtalo oshiq o'zini dahri dundan qo'l yuvgan qalandarga o'xshatadi. Haq yo'lidagi Alloh oshig'ining ustidagi janda aslida “g'am hariri”, boqiyga “jono jon” bo'lgan, “tariqi oshnoliq” rasmini buzgan, yor dastidan oshiq ham xuddi shunday og'ir ahvolda qolgan.

Tariqi oshnoliqni buzub nomehribon bo'lding,
Meni jononim erding, emdi kimga jonajon bo'lding,
Necha kun menga ulfatlik qilib oromi jon bo'lding,
Ko'zimni mardumida necha soat mehmon bo'lding,
Qalandardek tanimg'a g'am haririn jandalar qilding [2, 86].

Zulmkor, zulmpesha, purhiyla yorning qilmishlarini kimga aytishga hayron. Hasratga to'lgan oshiq parvoyi palak, beqaror ma'shuqaning kirdikorlaridan, badxo'yligidan g'ussaga g'arq, alam o'tida qovrilgan. Navoiy aytganidek: “Menga nomehribon yor o'zgalarga mehribon ermish”.

Kima aytib, kima yig'lay bu zolim yor jafosini,
Haqiqat qilmasa ma'shuq degan oshiq xatosini,
Hamisha furqatin tortsam, raqib ko'rsa vafosini,
Qayu Layli sifat mundog' qilur Majnun gadosini,
Yuzingni bir ko'ray desam qo'lingni pardalar qilding [2, 86].

Oshiq o'zini Majnun, sevgilisini Layliga qiyoslaydi. Bu ikki buyuk qalb egalarining beg'ubor, pokiza sevgisini eslatishi bilan birga, ma'shuqasining Laylidek emasligidan qattiq o'ksinadi, ishonchi poymol bo'lganligini bayon qiladi. Eng alamli oshiq har lahza, har soniya ayriliqdan azob chekadi, raqiblarga vafodor parivash esa begonalarini xursand qiladi. Ana shu ikki qarama-qarshi qutbda ma'shuqadan norozilik o'rini afsus-nadomat, pushaymonlik egallaydi oshiq qalbini.

Agar bilsam edi begona bo'lmoq ixtiyoringni,
Boshimg'a solmas erdim behuda savdoyi koringni,
Hama aytur nechuk qilding, o'shal mastona yoringni,
Ko'ngulda ginasi bor, arz qil ahvoli zoringni,
Solib bo'ynunga hajring zanjirin badkardalar qilding [2, 86].

Ma'shuqa endi oshiqqa begona, chunki bevafo “begona bo'lmoq ixtiyorini” qilgan, umid rishtalari uzilgan. “Befoyda savdoyi kor” tufayli parvonasifat oshiq kuyib bitgan. Mastona yor uning boshiga uqubat, mashaqqat yukini ortishidan charchamaydi. Hijron va ayriliq zanjirining har bir halqasini oshiq o'zining achchiq va alamli ko'z yoshi bilan yuvadi. U o'zini el orasida yomonotliq qilgan o'ynoqi ma'shuqasini unutmaganligi uchun shunday qiladi. Ixtiyori qo'ldan ketgan g'arib, aftodahol oshiq butunlay baloga giriftor. Imkonsiz oshiqqa xaloyiq yoring sendan ranjigan, “ahvoli zoring”ni unga bildir, deb aytadi. Ammo yorning bir sifati “mastona”lik, tabiiyki, mastonalikni kasb qilgan pariroy uning arz-dodiga quloq tutmaydi. U o'z husnining dostonini madh etuvchilar bilan birga, o'shalar bilan ovvora.

Mazkur misralarda shoir yor zulmining cheksizligi va bu dardni birovga aytish imkoni yo'qligidan shikoyat qiladi, raqibga qilinayotgan muruvvatdan ko'ngli og'riganini bildiradi. Laylisifat yorning jamolini ko'rish imkonsizligidan og'rinadi.

“Men tanim-la bir Laylo edim, ruhim-la bir Majnunman. Faqat bu zanjirlar oyog‘imni qisib, sahero qumiga ko‘mgan” deb yozgan edi Zebunniso. Lirik qahramon – oshiq xuddi shu rutbaga ko‘tarilgan, ruhi ishqqa g‘arq bo‘lgan. Biroq u hali oriflik darajasiga yetmagan.

Ishq odatda ikki yo‘l bilan kamol topadi. Birinchisi, bandaning bandaga bo‘lgan muhabbati orqali (Shayx San‘on va tarso qizi, Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro) bo‘lsa, ikkinchisi Haqdan tekkan jazba vositasida yuzaga keladi. Bunday ishq sohiblari odatda tug‘ma avliyo bo‘lishadi. Buyuk so‘fiy Najmiddin Kubro o‘zining mashhur “Usuli ash‘ara”sida o‘qib-o‘rganish bilan ilohiy ishqqa erishib bo‘lmashligini ta‘kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra ilohiy haqiqatlarni aql bilan idrok etib bo‘lmaydi, bunda hissiy bilim asosiy masala. Demak, ilohiy ishq – Ollahning inoyati, deb tushunish lozim.

Baytda inson yor deb ishongani ham aslida oddiy inson va istalgan vaqtda uni tark etishi mumkinligiga va boshga tushgan judoliklar, savdolar hajr alangasi ila toblashiga ishora qilinadi.

Yuragim rahna bo‘ldi, bas qil istig‘noni, jononim,
Firoqing torta-torta yoshligimda ketti darmonim,
Arazingni qo‘yub, lutf aylasang hech yo‘qtur armonim,
Ko‘zim nuri tanimni quvvatisan, ey dil oromim,
Na xo‘b bir necha kun Zavqiy qulingga shevalar qilding [2, 86].

Va nihoyat, so‘nggi bandda lirik “men” o‘zining pargolaligini, yuragi ikkiga (raxna) bo‘linganligini aytadi va jonondan istig‘noni bas qilishini o‘tinadi. Oshiqning umri firoq, hajr, dard bilan kechgan, yoshlikdagi kuch-quvvati, shijoati, o‘ktamligi uni tark etgan. Endi u yorning nurli jamoliga boqarkan, o‘z umri tugab borayotganligini anglab yetadi. Hayoti begonalarga oshno, raqiblarga hamdam, ag‘yorlarga yor bo‘lgan bevafoining ishq hijronida zavol topmoqda. Endi oshiq uchun ko‘zining nuri, tanining quvvati bo‘lgan ma‘shuqaning bir lutfi ham yetarli. Agar yor bir bor ko‘ngli yumshab, boshqalarni xursand qilgani kabi unga lutf qilsa, oshiqning armoni qolmaydi.

Agar muxammasning ichki tuzilishiga diqqat qilinsa, har bir bandda aniq bir ruhiy holat, ichki kechinma tasviriga duch kelamiz. 1-bandda ma‘shuqaning va‘dasiga, 2-bandda bemehrligi, 3-bandda ma‘shuqaning fitnakorligi bois el ichida bul havas deb malomatga qolishi; 4-bandda bemuruvvat qalamqosh sabab oshiqning sharmanda bo‘lishi; 5-bandda dilorom – ofati jon tufayli qalandardek g‘amga botishi; 6-bandda oshiqning vafodorligi, sadoqati; 7-bandda oshiqning bu mastona yordan ko‘ngil uzishi, afsuslanishi, o‘z-o‘zini ayblashi, 8-bandda so‘nggi iltijosi ifodalangan.

Aruzda yozilgan mazkur muxammasda XIX asr ma‘rifatparvarlik davri lirikasiga xos xususiyatlar bilan birga mumtoz she‘riyatga xos obrazli birikmalar, so‘z qo‘llash san‘ati ham aks etgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Zavqiy ijodi XIX asr o‘zbek ma‘rifatparvarlik adabiyotining betakror namunalari sifatida e‘tiborga loyiq. Shoir ijodida ijtimoiy-siyosiy, maishiy muammolarga qaratilgan she‘rlar bilan birga an‘anaviy yo‘nalishdagi oshiqona g‘azal va muxammaslar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tahlilga tortilgan muxammas shakl va mazmun jihatidan ma‘rifatparvarlik adabiyoti namunalaridan bo‘lib, Zavqiy ijodining serqirraligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. <https://ilmlar.uz/zavqiy-she'rlar-toplami-zavqiy-asarlari-tarjimai-holi/>
2. Zavqiy. Tanlangan asarlar. file:///C:/Users/user/Desktop/Zavqiy.%20Tanlangan%20she'rlar.pdf
3. Завкий. Ажаб замона. Шеърлар. – Т.: Шарк, 2003. – 518 б.
4. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *Asian journal of multidimensional research*, 10(4), 629-634.
5. Тўраева, Л. О. (2024). Ўзбек дехқончилигида таквим рамзлари. *IMRAS*, 7(1), 779-783.
6. Тўраева, Л. О. (2023). Ўзбек халқ оғзаки ижодида дехқон олқишларининг ўзига хос ифодаси. *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(24), 22-25.
7. Тўраева, Л. О. (2023). Дехқончилик кўшиклари жанрини белгилашда касбий атамаларнинг ўрни. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(22), 66-70.
8. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда дехқонлар ҳаётининг бадиий талкини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).
9. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs // *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.

10. Torayeva, I. (2023). Ўрим қўшиқларининг образлар таркиби ва бадиий-композицион хусусиятлари. *центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 42(42).
11. Omonovna, T. R. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 34-39.
12. Omonovna, T. L. (2024). A peculiar expression of peasant applause in folklore. *the theory of recent scientific research in the field of pedagogy*, 2(20), 199-204.
13. To‘rayeva, L. (2024). O‘zbek xalq o‘yinlarida “bobodehqon” kultiga oid qarashlar talqini. *the theory of recent scientific research in the field of pedagogy*, 2(20), 234-241.
14. To‘rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasida hayotsevarlik g‘oyalari. In *conference on the role and importance of science in the modern world* (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
SADRIDDIN AYNIIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR			
1	Раҳимкулов Ғайрат Норқўчқорович, Равзатуллоева Сония Фарҳод қизи	Мавқеъ ва махсусияти лексикаи ифодакунандаи касбу кор дар “Ёддоштҳо”-и Садриддин Айний	6
FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI			
2	Тўхсанов Қаҳрамон Раҳимбоевич, Боймуродов Бехруз Қудратзода	Таъсири адабиёти форсу тоҷик дар эҷодиёти – Фонй	18
3	Safarova Hilola Oxunjonovna, Yuldasheva Parvinabonu Nodirovna	Hamza she’rlarida Luqmoni Hakim timsoli	27
4	Rajabova Marifat Bakoyevna	Alisher Navoiy ijodida darvesh obrazi	21
5	Amonova Zilola Qodirovna Asxatova Diyoraxon Akmal qizi	“Layli va majnun” dostonida Abdurahmon Jomiy madhi	27
6	Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna	Tarixiy voqelik tasviri va yozuvchining badiiy mahorati (isajon sulton hikoyalari asosida)	31
7	Джураева Зулхумор Раджабовна	Ядерная зона номинативного поля концепта “женщина /ayol” в русском и узбекском языках	37
8	Турсунова Насиба Ҳамроевна	Ўзбек иримларининг тарихий асослари	42
9	Shukurova Sabohat Odilovna	Jahon adabiyotida suitsid. Egoistik va anomistik hudkushlik	46
10	Namozova Zilola Bozorovna Guliyeva Durdona Shuxrat qizi Sultanova Raisa Xayrullayevna	Rog‘ib va uning “laziz” radifli g‘azali: tabdil va tahlil	50
11	To‘rayeva Laylo Omonovna	Ubaydulla Solih o‘g‘li Zavqiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlari	55
12	Barotova Mubashira Barotovna	XX asr ingliz, rus va o‘zbek shoirlari ijodida sinkretizatsiyaning aks etishi	61
13	Jamolova Zilola Nizomovna	Adabiyotning ko‘zgusi: Matyoqub Qo‘shjonov ijodi va adabiy obzorlar	66
14	Maxmudova Robiyabonu Furqatovna	Vitaliy Zakrutkin ijodida ona timsoli	71
15	Hamzayeva Zebo Murodjon qizi	“Tess D’erbervillning nasabi” va “Bonu”: janrning ikki ko‘rinishi sifatida	74
16.	Matkurbanova Oygul Mamatsalayevna	Hikoyada mavzu va g‘oya uyg‘unligi	78

17.	Izmurodova Shahnoza Toshtemir qizi	Bir aso tarixi va uning arxetipik davomchiligi	83
18.	Sharipova Ma'mura Sharif qizi	Badiiy asarlarda epigrafning o'rni	88
19.	Mardonova Xonzoda Anvar qizi	Karimbek Kamiy mahorati	92
TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI			
20	Yuldasheva Dilorom Nigmatovna Umarova Dildor Faxriddinovna	Sukutning o'rganilish aspektlari: falsafiy yondashuv	98
21	Kilichev Bayramali Ergashovich Ergasheva Laziza Akmal qizi	Romitan tumani oykonimlari	106
22	Qurbonova E'zoza Shuhrat qizi,	O'zbek yuridik terminlari maxsus lug'atchiligi: tarjima lug'atlar	110
23	Jumayeva Dilnoza Baxshulloyevna	Jahon tilshunosligida punktuatsiya tizimining nazariy asoslari va ahamiyati	115
24	Ortiqova Hamida Maxmud qizi	Abdulla Oripov she'rlarining assotsiativ tahlili	118
25	To'rayeva Dildora Anvarovna	Shaxsiy yozishmalardagi hududiy birliklarning lingvistik ekspertizasida dialektik yondashuv mazmuni	124
26	Shirnova Mexrigiyo Shokirovna	"Aldama meni" teleko'rsatuvi nutq madaniyati va til me'yorlari ko'zgasida	131
27	Kurbanova Farogat Subxonovna	Lingvistik ekspertizaning dunyo tilshunosligida va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi	136
28	Кодиров Аббос Ахорович	Исследование концептуальных структур в когнитивной лингвистике: взаимодействие концептологии и языковой картины мира	143
29	Ахмеджанова Ситора Джухраходжаевна	Определение основных понятий и типология лингвистических корпусов	150
30	Baxriyeva Umriniso Maxsud qizi	Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asaridagi tibbiy birliklarning morfologik jihatlari	156
31	Ziyodillaeva Mahbuba Ermatovna	Classification of prototypical meanings in american national culture through the image of the "statue of liberty"	162
	RETRO	Беназир устозимиздан тухфа (Давоми. Боши 2024 йил, 2-сонда)	167
	QUTLOV	Unvon muborak!	174